



QISQA XABARLAR

PROFESSIONAL TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHNING

HOZIRGI HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH ZARURIYATI

Axadova Gulnoza Said qiziJizzax Politexnika instituti tayanch doktoranti
axadovagulnoza7257@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada professional ta'limga o'qituvchilarini tayyorlashning bugungi holati va uni takomillashtirish haqida fikr yuritilgan.

Professional ta'limga o'qituvchilarini tayyorlash va qayta tayyorlashda hamda o'qituvchilarning pedagogik faoliyat olib borish jarayonida ularning kasbiy kompetentligi naqadar katta ahamiyat kasb etishi va kasbiy kompetentlikning sifatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kasbiy kompetentlik, ijtimoiy kompetentlik, maxsus kompetentlik, psixologik kompetentlik, metodik kompetentlik, informatsion kompetentlik, kreativ kompetentlik, innovatsion kompetentlik, kommunikativ kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, texnologik kompetentlik, ekstremal kompetentlik.

Аннотация: В данной статье рассматривается современное состояние подготовки учителей профессионального образования и его совершенствование. При подготовке и переподготовке педагогов профессионального образования и в процессе педагогической деятельности учителей раскрывается значение их профессиональной компетентности и качеств профессиональной компетентности.

Ключевые слова: компетенция, профессиональная компетентность, социальная компетентность, специальная компетентность, психологическая информационная компетентность, методологическая компетентность, компетентность, творческая компетентность, инновационная компетентность, коммуникативная компетентность, личностная компетентность, технологическая компетентность, предельная компетентность.

Abstract: This article discusses the current state of professional education teachers training and its improvement. In the training and retraining of teachers of professional education and in the process of pedagogical activity of teachers, the importance of their professional competence and the qualities of professional competence are revealed.

Key words: competence, professional competence, social competence, special competence, psychological competence, methodological competence, informational competence, creative competence, innovative competence, communicative competence



JizPI XABARNOMASI

2024 yil 2 (19) son

personal competence, technological competence, extreme competence.

Yangi O'zbekistonda ta'lif tizimini tubdan o'zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat bozori talabiga mos malakali kadrlar tayyorlash hamda Uchinchi Renessans g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Professional ta'lif tizimida o'quv tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish natijasida barkamol, malakali mutaxassislarni tayyorlash, ularni raqobatbardosh, yetuk-

bo'lib yetishishlarida ta'lif muassasalarida olib boriladigan, amalga oshiriladigan uslubiy ishlar muhim o'ringa egadir. Uslubiy ishlar ta'lif-tarbiya jarayoni bilan

shug'ullanadigan har bir o'qituvchi, muhandis-pedagog, rahbar xodimlarning o'z malakalarini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'kidlangandek, davr talabiga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun, avvalambor, ta'lif-tarbiya bilan shug'ullanuvchilaning o'zlari yetuk, yuqori malakali bo'lishlari shart. Bu talabga javob berish uchun har bir o'qituvchi, muhandis-pedagog, rahbar uslubiy ishlar bilan shug'ullanishi va ularda qatnashishi zarur.

O'quv muassasalaridagi muhandis-pedagoglarning faoliyati faqatgina nazariy va amaliy bilimlar berish, ya'ni darslar o'tish bilan cheklanib qolmaslik, ular faoliyatida har bir o'quvchi bilan shaxsiy ishslash, o'z ustida mustaqil ishslash, o'quvchilar guruhi bilan ishslash, o'z fani bo'yicha tashkiliy ishlami olib borish, kabinet, laboratoriya, o'quv

ustaxonalarini tashkil qilish va jihozlash, ota-onalar bilan ishslash, fanlar bo'yicha uslubiy komissiyalar ishida qatnashish va hakozolar bilan bo'lg 'liq.

Muhandis-pedagoglarning o'quvchilar guruhi bilan ishslash, ularning ishlarini tashkil qilish va ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'z ustida har doim tinimsiz ishlashi kerak, buning uchun ular bilimini oshirib va takomillashtirib borish zarur. Chunki oliy bilim dargohida olgan bilimlari yetarli bo'lmay qoladi. Bu o'z ustida ishslashlar, izlanishlar, yaratishlarning asosida uslubiy ishlar yotadi. Shuning uchun ham muhandis pedagoglardan o'z mustaqil ishlarini tashkillashtirishda, ularni ilmiy asosida tashkil etish lozim.

Ma'lumki, bozor munosabatlariiga asoslangan demokratik jamiyatda mavjud u yoki bu ish yoki xizmat o'rnnini egallab turgan har bir mutaxassisning tegishli o'ringa qanchalik munosibligi darajasi uning shu ish yoki xizmat egasiga qo'yiladigan turli-tuman talablarga naqadar javob berishligi bilan o'Ichanadi. Keyingi yillarda ish yoki xizmat o'rni bilan shu ish yoki xizmat o'rniiga talabgor shaxs o'rtasidagi ana shunday munosiblik darajasini hisoblash asoslarini ishlab chiqish yo'lida jahonning bir qator davlatlarida kasb kompetensiyalarini tadqiq qilish va ana shunday tadqiqotlar natijalarini amalda qo'llashga oid bir qancha konsepsiylar vujudga keldi.



JizPI XABARNOMASI

2024 yil 2 (19) son

“Kompetensiya” so‘zi tarjimada “layoqatli”, “munosib bo‘lmoq” kabi ma’nolarini anglatuvchi lotincha “competere” so‘zi asosida hosil bo‘lgan. “Kompetensiya” deyilganda, shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi tushuniladi. Kompetensiya lotincha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “munosib”, “to‘g’ri keladi” yoki “mos keladi” ma’nolarini anglatadi. O‘z bilim, mahorat va amaliy tajribalarni qo’llagan holda oddiy va murakkab masalalarni yecha olishga munosib inson deb tushunsa bo‘ladi. Ko‘p hollarda “kasbiy kompetentlik” atamasi qo’llaniladi.

Bu so‘zni kasbiy vazifalarini amalgalashda o‘z amaliy tajribalari, bilim va ko‘nikmalarini muvaffaqiyatlida qo’llay olish qobiliyati deb tushunsa bo‘l2a di.

Hozirgi zamon pedagogika fani va bu borada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga nazar tashlasak, turli soha va mutaxassisliklarga, fan va uslublarga, o‘qitish usullari texnologiyalariga juda ko‘p e’tibor qaratilganligini sezamiz. Ammo ana shu pedagogik usullarni tushunish, ularni amaliy faoliyatda qo’llash masalasi eng dolzarb muammolardan biriga aylanganligini alohida ta’kidlash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, o‘qituvchining pedagogik faoliyatidan kelib chiqib, professional ta’lim o‘qituvchilari kasbiy kompetentligi komponentlarining tuzilmasi sifatida quyidagilar ajratiladi:

dars beradigan fani sohasidagi bilim va ko‘nikmalari;

Kompetent o‘qituvchining kasbiy kompetentligi kee
bkds ixo Kompetentlik; kompetentligi;

Kompetent o‘qituvchi dars o‘tadigan fan sohasida ilmiy bilimlarni egallagan bo‘lishi kerak, ammo bu pedagogik ta’limga ega bo‘laman o‘qituvchi g‘oyalariga zid ravishda yetarli emas. Kompetent o‘qituvchi - kasbiy usullar va metodikaga (ta’lim texnologiyalari) ega yaxshi uslubchi, u o‘quv materialni kognitiv vazifalar tizimi turida taqdim etishga qodir bo‘lib, o‘rganilayotgan fan mazmuni talabalarning o‘zlashtirishiga qaratilgan. O‘qitilayotgan fan va uni o‘qitish metodikasi sohasidagi bilimlardan tashqari, qaysi fanni o‘qitishidan qat’iy nazar, o‘quv-tarbiya va shaxs psixologiyasida, hamda pedagogikada kompetent bo‘lishi kerak. Professional ta’lim o‘qituvchisining psixologik kompetentligi yuqorida aytilganlarga qo’shimcha tarzda quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

psixodiagnostika asoslari;
psixodiagnostika asoslari;
psixodiagnostika asoslari;

psixodiagnostika asoslari.³



JizPI XABARNOMASI

2024 yil 2 (19) son

O'qituvchining pedagogik kompetentligini bilim, ko'nikma, malakalar va pedagogik hamda talabalarni o'qitish va tarbiyalash vazifalarini bajarish uchun zarur ilmiy-tadqiqot qobiliyatlari majmui tashkil qiladi. U professional ta'lism davlat ta'lism standartlarini; professional ta'lism maqsadi va mazmuni; professional ta'lism mazmuni tuzilishining tamoyillarini; ta'lism va tarbiya jarayonlari qonuniyatlari va mohiyatini; talabalarni o'qitish va tarbiyalash usullari hamda tashkil qilish shakllarini; zamonaviy pedagogik texnologiyalarni bilishi shart. Bundan tashqari professional ta'lism o'qituvchi va muhandis-pedagoglari quydagilarga qobiliyatli bo'lishi kerak: mustaqil tarzda o'quv materialini tanlash va uning sezilarli hajmini talabalarga qisqa muddatda yetkazib berish, talabalarining o'zlashtirishini ta'minlash maqsadida maqbul texnologiyalarni tanlash; ta'limga faol va interfaol metodlaridan foydalanib, mashg'ulotni to'g'ri rejalashtirish hamda tashkil qilish, ijodiy bilim va o'z bilimlarini o'zlashtirish, talabalarda ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayonlarini ta'minlash; talabalarda mustaqil o'quv-kognitiv faoliyatga motivatsiyani shakllantirish; o'z bilimlari bilan tajriba almashish, o'z ustida tinmay ishlash va yangi bilimlarni izlash va boshqalar.

malakalarning

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim egallanishni emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va kompetensiya

harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek,

mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rGANISHNI, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish

ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga

tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash va bilim, ko'nikma va malakalarni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi

mazmunni ifodalaydi:
– pedagogik sjaixroalyoognikd kao smopge'ltoemnt Ipiks ixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lism jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobjiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

metod ik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lism yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va



JizPI XABARNOMASI

2024 yil 2 (19) son

vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish,
vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

kerakli i, **informatzion kompetentlik** – axborot muhitida zarur, muhim,
foyDALI ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishslash va ulardan maqsadli,
o'rinni, samarali foydalanish;

kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy
yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim
sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi
g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

komm u nikativkompetentlik – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari,
jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy
ta'sir ko'rsata olish.

3. Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka
darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

4.Texnologik kompetentlik –kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni
boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va
texnologiyalardan foydalana olish.

5. Ekstremal kompetentlik– favqulodda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik
jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror
qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

Professional ta'lim o'qituvchilarining innovatsion ta'lim muhiti talablari asosida
pedagogik kompetentligini takomillashtirish uchun quyidagilarga e'tiborni qaratish
maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. O'qituvchilarining barcha toifalari kesimida mutaxassislik fanlari bo'yicha
malaka talablarini shakllantirishda kompetensiyaviy yondoshuvning mazmun-
mohiyatiga e'tibor qaratish;

2. Kompetensiyaviy yondashuv asosida vujudga keltiriladigan innovatsion ta'lim
muhiti talablari e'tiborga olingan holda o'qituvchilarining barcha toifalari kesimida
mutaxassislik fanlari bo'yicha elektron qo'llanmalar yaratish;

3. O'qituvchilarining malakasini oshirish kurslarini ehtiyojga asoslangan holda
tashkil etish, bunda fan o'qituvchisining ehtiyoji nazarda tutilmoqda;

4. Malaka oshirish kurslarida o'qituvchilarining pedagogik tayyorgarligini kasbiy
diagnostik tahlil qilishni yo'lga qo'yish, aniqlangan bo'shliqlarni o'qituvchi shaxsiga
yo'naltirilgan holda individual korreksion ish olib borish zarur.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, professional ta'lim o'qituvchisi kasbiy
faoliyatining har bir bosqichida, ya'ni barcha pedagogik vazifalarni hal qilish undan



JizPI XABARNOMASI

2024 yil 2 (19) son
kasbiy kompetentlikni shaxsiy darajasini amalga oshirishni talab qiladi. Pedagog har
jabhada o'quvchi qalbiga yo'l topa olishi, uni hayotga qiziqishini kuchaytirishi, vatan
oldidagi burchini to'liq his qilishga tayyorlashi kerak. Pedagogik kadrlarni tayyorlash
kvoammpaelateknasiynai voysi hyiorisnhd ajasrhauyvo ntaidlaab lari asosida
kurslarning mazmunini yangilash, shu asosda o'qitishni tashkil etish va boshqarish dav
talabi sanaladi. Demak, jamiyatdagi barcha yangilanishlarni uyg'unlashtirish uchun
shaxsiy yetuklik bilan birga kasbiy kompetentlik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.R.Xodjaboyev, I.A.Husanov. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. T., «Fan va texnologiya», 2007, 192 bet.
2. Axmedova Mukarram Tursunalievna Pedagogik kompetentlik (uslubiy qo'llanma): 5110900 – Pedagogika va psixologiya / -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018. - 80 bet.
3. INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM VA TADQIQOTLAR JURNALI
JOURNAL OF INTEGRATED EDUCATION AND RESEARCH OLIY TA'LIM
O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGI: ASOSIY KOMPONENTLARI
Rahmatova Zulkumor Mamitxonovna NOVEMBER 2023/2(11) ISSN: 2181-3558
4. Назирова, Ф. (2023). Kasbiy kompetentlik sifatlari. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(3), 363–367
<https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp363-367>

JizPI